



Journal of Natural Sciences

№2
(2021)

<http://www.natsciences.jspi.uz>



<u>ТАХРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАХРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Худанов У – Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Кодиров Т- к.ф.д, профессор3. Абдурахмонов Э – к.ф.д., профессор4. Султонов М-к.ф.д, доц5. Рахмонкулов У-б.ф.д., проф.6. Хакимов К –г.ф.н., доц.7. Азимова Д- б.ф.н.8. Мавлонов Х- б.ф.д., доц9. Юнусова Зебо – к.ф.н., доц.10. Гудалов М- фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)11. Мухаммедов О- г.ф.н., доц12. Хамраева Н- фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)13. Рашидова К- фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц14. Мурадова Д- фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (хар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчиб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Sciences-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

O'ZBEKISTONDA DEHQONCHILIK SHART-SHAROITLARINING IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUVI

Soliyeva Gulnoza Danyarovna, Biologiya o'qitish metodikasi o'qituvchisi,
JDPI, Toxirova Elmira- talaba.

Annotatsiya. Dehqonchilikda yerdan foydalanishning barqaror rivojlanishi, iqtisodiy tamoyillari, mexanizmi va ko'p maqsadlilik xarakteri, takror ishlab chiqarish sikli va yer rentasi, yerni baholash va xususiylashtirish, yerning investitsiya ob'ekti sifatidagi, yer ijarasi, yer solig'i xususiyatlari va boshqa shu kabi yo'nalishlar yuzasidan muammolarni aniqlash, shuningdek ularning yechimlari yuzasidan muayyan fundamental, tizimli, metodologik va amaliy asoslari bilan bog'liq masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: yer, dehqonchilik, tomorqa, o'simlik, tuproq, tabiiy.

Annotation. The following study emphasizes the sustainable development of land use in agriculture, economic principles as well as its mechanism, multi-purposed features, cycle of reproduction and land rents. Moreover, it figures out issues that related to the land valuation and privatization, land as an object of investment, land lease, land tax features, etc. The aspects concerning the identification problems on the basis of solutions, as well as the specific fundamental, systematic, methodological and practical basis for their solutions are scrutinized.

Keywords: land, agriculture, gardening management, planting and horticultural management, soil, natural resources.

Аннотация. В следующем исследовании подчеркивается устойчивое развитие землепользования в сельском хозяйстве, экономические принципы, а также его механизм, многоцелевые функции, цикл воспроизводства и земельная рента. Кроме того, он определяет вопросы, связанные с оценкой земли и приватизацией, землей как объектом инвестиций, арендой земли, особенностями земельного налога и т. д. Аспекты, касающиеся проблем идентификации на основе решений, а также исследуются конкретные фундаментальные, систематические, методологические и практические основы их решений.

Ключевые слова: земля, сельское хозяйство, садоводство, озеленение и садоводство, почва, природные ресурсы.

So'ngi yillarda mamlakatimizda dehqonchilikda yer munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlari va me'yoriy aktlar qabul qilindi. Ularning asosiy jihatlaridan biri bu – yerning qiymati, yer solig'i va yer ijarasi haqi shakllarida namoyon bo'ladigan yerdan foydalanish uchun tabaqalashtirilgan haqning joriy etilishi, yerlarni xususiylashtirish va yer bozorining shakllanishi hamda bu sohada iqtisodiy munosabatlarni yanada rivojlantirish va tartibga solish

kabi ustuvor yoʻnalishlarning ishlab chiqilishidir. Shunga qaramasdan hozirgi kunda yer munosabatlarini isloh etishning asosiy maqsadi – iqtisodiyot tarmoqlarida, ayniqsa qishloq va oʻrmon xoʻjaligida, hududlarida yerdan foydalanish samaradorligini oshirishga yerishib boʻlmayapti. Bunda eng muhim ahamiyatga ega boʻlgan yerdan foydalanish sohasidagi munosabatlarning zamonaviy jamiyat va iqtisodiyot ehtiyojlariga mos keladigan samarali iqtisodiy mexanizmni ishlab chiqishdir. Lekin, bu borada olib borilgan tadqiqodlarning natijalari soliq solinadigan bazani yaratadigan, yer mulkchiliga va yer ijarasini rivojlantiradigan, dehqonchilikda yer bilan bogʻliq turli xil bitimlarni tuzishga sharoit tugʻdiradigan muayyan yer uchastkasini har tomonlama baholash, yerlarni xususiylashtirish va yer bozorini shakllantirish, yerlarning investitsiya jarayonlaridagi ishtirokini samarali taʼminlash kabi eng muhim yoʻnalishlarning nazariy, uslubiy-amaliy mexanizmlarini yaratish va yanada takomillashtirish imkoniyatlarini hali bermayapti. Bundan tashqari, mavjud iqtisodiy mexanizm yerdan samarali foydalanishni yetarli darajada ragʻbatlantirmayapti, uning unumdorligi oshishini taʼminlamayapti hamda unumdor yerlarning yer oborotidan chiqib ketishining oldini olmayapti.

Dehqonchilikda yerdan foydalanish iqtisodiyoti asoslari jamiyat va iqtisodiyotda yerni tasarruf qilish, yerga egalik qilish, yerdan foydalanish shakllari, yerni takror ishlab chiqarish sikli va uning davrlari, yer munosabatlarini tartibga solishda iqtisodiy jihatlarning ustuvorligi, yerdan foydalanishning iqtisodiy tamoyillari, tarmoqlar, sohalar, hududlar boʻyicha yerlarning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi, qishloq xoʻjaligi yer turlari, yer ijarasi munosabatlari, yer rentasi, yerning narx koʻrinishidagi bahosini belgilash, yer resurslari uchun toʻlovlar (yer soligʻi va yer ijarasi haqi), ipoteka kreditlari, yerdan foydalanishni boshqarishning iqtisodiy vazifalari, yerni xususiylashtirish, yer bozori, yerning investitsiyaviy xususiyatlari, yer resurslaridan foydalanish samaradorligi kabi koʻplab muhim iqtisodiy kategoriyalardan tarkib topgan.

Yerdan foydalanishning shunday tizimi zarurki, u bir vaqtning oʻzida ham aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishni (oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa moddiy neʼmatlar, mehnat bilan band boʻlishi uchun yetarli yer resurslari) yaxshilashga, ham tabiiy xilma-xillikni (tabiiy tizimlarning oʻzaro mutanosibligi, atrof-muhitning saqlanishi) taʼminlashga, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlari, shuningdek ijtimoiy sohalarning yer resurslariga boʻlgan ehtiyojlarini qondirishga (sanoat, transport, tadbirkorlik faoliyati, infrastruktura tarmoqlari, taʼlim, sogʻliqni saqlash va boshqalar), davlatning oʻz qonuniy vakolat va vazifalarini amalga oshirishi uchun zarur boʻlgan yerlar bilan taʼminlashga, qishloq xoʻjaligi ekinlarining hosildorligini va, eng avvalo, yerning mavjud unumdorligini (sifati,

xo‘jalik, texnologik xususiyatlari) saqlab qolish va oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Dehqonchilikni yuritishning dehqonchilik qonun-qoidalari va agrotexnologiya me‘yorlariga muvofiqligi darajasi mavjud. Dehqonchilik tushunchasi keng ma‘noda umuman jamiyatda dehqonchilikni yuritish darajasini bildiradi, tor ma‘noda dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan insonning dehqonchilikka oid bilim va tajribalari hamda uni qo‘llash mahorati, malakasini anglatadi. Jamiyat taraqqiyotidagi har bir muayyan davrning o‘ziga xos Dehqonchilik mavjud va bu madaniyat asrlar davomida vorisiylik asosida boyib va yangilanib boradi. Dehqonchilikning paydo bo‘lishi va rivojlanib borishi jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari, ayniqsa sanoat ishlab chiqarishi va fan-texnika taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq. Dehqonchilik xalqxo‘jaligidagi boshqa tarmoklardan tabiiy va iqtisodiy jarayonlari birgalikda kechishi bilan farq qiladi. Yer (tuproq) va o‘simlik asosiy ishlab chiqarish vositalari va ayni paytda mehnat ob‘yektlari tarzida namoyon bo‘ladi. Tuproq g‘oyat muhim xususiyatga — unumdorlik xususiya-tiga, ya’ni yetishtiriladigan o‘simlikni suv, oziq moddalar unsurlari va bog‘langan azot bilan uzluksiz ta‘minlash xususiyatiga ega. Tuproqning tabiiy (potensial) va iqtisodiy (samarali) unumdorligi bor. Tabiiy tuproq unumdorligi uzoqdavom etadigan tuproq hosil bo‘lish jarayonlari natijasida yuzaga keladi; tuproqning fizik, kimyoviy biologik xususiyatlari mahalliy iqlim xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liklikda amal qiladi. Tuproqning iqtisodiy unumdorligi jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari rivoji jarayonida inson tomonidan yaratiladi. O‘simliklar tabiiy tuproq unumdorligidan foydalanib (tuprokdan suv, oziq moddalari va azotni shimish), atmosferadan karbonat angidrid gazini o‘zlash-tirish, quyosh kinetik energiyasini tutish va qayta o‘zgartirish, pirovard natijada noorganik moddalarni organik moddalarga aylantirish, ya’ni turli-tuman dehqonchilik mahsulotlari tarkibiga kiradigan oqsil, kraxmal, qand, moy va boshqa moddalar yaratish xususiyatiga ega.



Yer sirtida tabiiy sharoitlarning xilma-xilligi ekinlarni yetishtirishda maxsus usul va vositalar qo‘llash, agrotexnologiyani har bir hudud, xo‘jalik, hatto har bir dalaning tuproqsharoitlariga, shuningdek, ekilgan ekinlar tur va navlarining biologik xususiyatlariga qarab tabaqalashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Dehqonchilikda insonning eng muqim vazifasi — agrotexnologik, meliorativ, tashkiliy va iqtisodiy tadbirlar majmuini bajarish yo‘li bilan, ya‘ni oqilona dehqonchilik tizimini amalga oshirish yo‘li bilan tabiiy tuproq unumdorligini iqtisodiy unumdorlikka aylantirishdan, hosil olishdan iborat. Shu sababli dehqonchilikning real yutuqlarini ta‘minlashda inson — dehqon malakasi va mahorati markaziy o‘rinda turadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avezbaev S., Volkov S.N. “Yer tuzish iqtisodi”. Darslik. T.: Yangi asr avlodi, 2002 22.
2. Altiev A.S. Yer resurslaridan foydalanish tizimini tartibga solish muammolari. Monografiya. -T.:“Fan”, 2018. – 274 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b. 21.
4. Salimov B.T., Yusupov M.S. Dehqon va fermer xo‘jaliklari iqtisodi. – T.: TDIU, 2009. - 300 b